**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**Buxoro davlat universiteti**
**rektori O.X.Xamidov**

**«29» august 2023 yil**

**08.00.13 – «Menejment»**

**ixtisosligi bo‘yicha mutaxassisligi bo‘yicha mutaxassislik fanidan malakaviy imtihon topshirish bo‘yicha**

# D A S T U R

**Buxoro – 2023**

Kirish imtihon dasturi 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi pasporti asosida Buxoro davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Toxirov J.R. – "Marketing va menejment" kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD)

Zayavitdinova N.M. – "Marketing va menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchilar:**

Nizamov A.B. – BMTI "Menejment" kafedrasi professori, i.f.d.

Tadjiyeva S.U. – BuxDU "Marketing va menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakultetining Ilmiy kengashida muhokama qilingan.
Bayonnoma № 1, 2023 yil 28 avgust.

**Fakultet dekani** **i.f.d., dots. Yavmutov D. Sh.**



**Tushuntirish xati**

Mamlakatimizda ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda ilmiy izlanuvchilar uchun fan tarmoqlari, ixtisosliklar guruhi va ixtisosliklar belgilangan. Shulardan alohida ishdan ajralgan holda tashkil etiladigan tayanch doktorantura ta'lim shakllari mavjud.

Mazkur nomlarda belgilangan ilmiy izlanishlar ta'lim shaklini qisqacha ifodalaganda quyidagi ma'nolarni beradi.

Tayanch doktorantura (PhD — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli.

Menejment bo'yicha pedagog kadrlarning sifat va samaradorligini oshirish uchun kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi davr talabidir.

Mazkur dasturda iqtisodiyot fani tarmog'ining 08.00.13 – Menejment ixtisosligi bo'yicha, tayanch doktorantura da'vogar (ilmiy izlanuvchi) larning ushbu ixtisoslik bo'yicha imtihon topshirishi, yoki suhbatda ishtirok etishi uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishiga mo'ljallangan va ularga amaliy yordam sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiya etiladigan namunaviy savollar, aniq mavzular va ularning mohiyati, mazmuni berilishiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ilmiy izlanuvchilar javoblarini baholashda e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan jihatlarga aniqlik kiritilishiga harakat qilingan hamda Qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan me'yorlarga asoslanildi.

**KIRISH**

Bugungi shiddatli o'zgarishlar davrida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ilm-fanning rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va ilmiy darajali kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida menejment sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimizda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu "Menejment" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon dasturida keltirilgan mavzu va masalalar innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida

menejment sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va xorijiy mamlakatlar amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mutaxassis kadrlar tayyorlashni tubdan qayta qurish, oliy ta'limni tubdan isloh qilishni jadallashtirish borasida qo'yilgan masalalar, jumladan "...doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilashda oliy ta'lim muassasalariga erkinlik berish, talabgorlarni saralab olishda ularning ilmiy yutuqlariga alohida e'tibor qaratish"[1] masalalari e'tiborga olindi.

Dasturda qo'yilgan mavzu va masalalar "Menejment" ixtisosligi bo'yicha fan doktorligiga talabgorlarning faqat shu sohasidagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi. Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar fan doktorligiga da'vogarlarning shaxsiy qarashlarini shakllanishini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Dastur 08.00.13 – «Menejment» ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu dastur 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan malakaviy imtihon topshiruvchi tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarga mo'ljallangan.

## ASOSIY QISM

### "Menejment" fanining mazmuni, predmeti va vazifalari

"Menejment nazariyasi", "Menejer" va "Biznesmen" tushunchalarining mohiyati. Fanning predmeti va izlanish uslublari. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari. Menejment asoslarini o'rganishning dolzarbligi. Menejment konsepsiyalari va ularning asoschilari. Boshqaruv ilmining o'ziga xos xususiyatlari. Boshqaruvning kelajakka yo'naltirilganligi. obyektiv zarurati. Menejmentning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida menejmentni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

### Boshqaruv tafakkurining evolutsiyasi

Qadimgi amaliyot-yangi fan. Boshqaruvning fan sohasi kabi evolutsiyasi. Boshqarishga tizimlashtirilgan qarash. Boshqaruvga yondashuvlar. Jarayon kabi yondashuv. Tartibli yondashuv. Vaziyatli yondashuv. Turli maktablarni ajratish asosidagi yondashuvlar.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида"ги фармони. /"Халқ сўзи" газетаси, 2019 йил 9 октябрь



Ilmiy boshqaruv (1985-1920). Boshqaruvda klassik yoki ma'muriy maktab (1920-1950). Insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950). Boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950-hozirgi vaqtgacha).

Axloq fanlarining rivojlanish maktabi. Operatsiyalar tadqiqoti va modellar. Miqdoriy yondashuvning ta'siri.

Menejment nazariyasi asoschilari. F.Teylor, G.Ford, Dj.Gilbert, Emerson, A.Fayol va boshqalar haqida. Iqtisodiyotni boshqarish tizimining rivojlanishi. Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, uning shakllanish bosqichlari. So'nggi yillarda boshqarish nazariyasi va amaliyotidagi o'zgarishlar. Turli mulkchilik shakllari va raqobatchilik sharoitida menejment.

O'zbekistonda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi.

### Menejment qonunlari va tamoyillari

Umumiy falsafiy dialektik qonunlar. Boshqarish tizimida bozor qonunlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment qonunlari va tamoyillarini o'rganishning ahamiyati. Boshqarish va ishlab chiqarishning mosligi qonuni. Boshqarish funksiyalarini markazlashtirishning nisbiy optimalligi qonuni. Boshqarish qonunlarining menejment amaliyotida qo'llanilishi. Menejment tamoyillari. Menejment tamoyillarining tarkibi va mohiyati.

### Menejment texnologiyasi

Boshqaruv jarayoni va xususiyatlari. Menejment texnologiyalari. Maqsadlar bo'yicha boshkarish texnologiyasi. Natijalar bo'yicha boshqarish texnologiyasi. Ehtiyojlar va manfaatlarni xisobga olish asosida boshqarish. Maxsus vaziyatlardagi boshqarish. Faoliyatni aktivlashtirish asosida boshqarish. Tizimli tekshiruvlar va farmoyishlar asosida boshqarish. Menejment maqsadi. Maqsadlar shajarasi. Maqsadli boshqaruv usuli.

### Menejment funksiyalari

Boshqaruv vazifalari. Menejment funksiyalari tushunchasi va ahamiyati. Menejment funksiyalarining turlari. Rejalashtirish. Tashkil qilish. Muvofiqlashtirish. Nazorat. Nazorat funksiyasi va jarayoni. Nazoratning hatti-harakat jihatlari va samaradorligi. Motivatsiya. Motivatsiya nazariyalari. A.Maslou bo'yicha ehtiyojlar iyerarxiyasi. Motivatsiyada jarayonli nazariyalarning amal qilishi. Porter-Louler modeli. Menejmentning o'ziga xos va aniq funksiyalari.

### Tashkilotlar va ularni boshqarish

Tashkilot tushunchasi va uning tavsifi. Rasmiy va norasmiy tashkilotlar. Tashkilotning yashash davri. Tashkilotning ichki muhiti. Tashkilotning tashqi muhiti. Tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillari va o'zgaruvchanligi. Tashkilotlar faoliyatini turkumlashtirish. Tashkilotlarning yangi turlari.

### Menejmentning tashkiliy tuzilishi

Boshqarishning tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha. Boshqarish tashkiliy tuzilmalarining turlari. Mehnatni gorizontal bo'linishi. Mehnatni vertikal taqsimlanishi. Chiziqli tuzilma, funksional tuzilma, chiziqli-shtabli tuzilma, chiziqli-funksional tuzilma, matritsali tuzilma, divizional tuzilma, loyihali tuzilma, maqsadli-dasturli tuzilma, tashkiliy iste'molchiga mo'ljallangan tashkiliy tuzilma, mintaqaviy tuzilmalar. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini loyihalashtirish. tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish.

### Menejment usullari

Menejment usullari haqida tushuncha. Menejment usullarining turlari. Boshqarishning iqtisodiy usuli-bozor iqtisodi xo'jaligini samarali yuritish asoslari. Tashkiliy-farmoyish usuli, uning mohiyati va tavsifi. Tashkiliy-farmoyish usulining boshqaruvdagi roli. Tashkiliy- farmoyish usulining tabaqalanishi. Menejmentning ijtimoiy-ruhiy usullari, ularning turlari va mazmuni. Menejmentning axloqiy va ruhiy jihatlari.

### Zamonaviy menejer

Menejer va uning vazifalari. Menejerlarning darajalari. Menejment mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati. Menejerlar mehnatini tashkil qilish. Menejerlarning ishbilarmonligini baholash. Ishlab chiqarishning turli sharoitlarida menejerning ish uslubi. Menejerlar faoliyatini baholashda reyting tizimi. Menejer va lider. Zamonaviy menejer-liderning kasb-malaka modeli.

### Tashkilot madaniyati va rahbarning undagi roli

Menejment madaniyati tushunchasi. Menejment madaniyatining asosiy elementlari. Boshqaruvda rahbarning roli va rahbarlik uslublari. Rahbar fazilatlari va madaniyati. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati. Menejerning imidji. Ishbilarmonlik etikasi. Nutq madaniyati.



### Xodimlarni boshqarish

Xodimlarni boshqarish tizimi va tamoyillari. Xodimlarni tanlash va ularga baho berish. Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish. Xodimlarni boshqarishda inson ehtiyojining roli.

Karyerani boshqarish. Karyeraning turlari va amalga oshirish bosqichlari. Karyerani tanlash, rejalashtirish va uni amalga oshirish.

Guruhlar va ularning ahamiyati. Jamoa tushunchasi, turlari, shakllanish bosqichlari. Mehnat jamoasi.

Hokimiyat va ta'sir. Hukmronlik turlari. Ta'sir etish usullari. Xarizma.

### Nizo va stressni boshqarish

Nizo, uning kelib chiqish sabablari va turlari. Nizolarni boshqarish. Nizolarning vazifalari. Ichki shaxsiy nizo. Shaxslararo nizo. Shaxs va guruh o'rtasidagi nizo. Guruhlararo nizo. Nizolarni boshqarish. Stress va uning sabablari. Stressni boshqarish.

### Boshqaruv vakolatlari

Vakolat va uning zaruriyati. Vakolat va mas'uliyat. Vakolatlarni uzatish. Boshqaruv vakolatlarining turlari.

### Menejmentda axborot va kommunikatsiya

Axborot va unga qo'yiladigan talablar. Axborotlar tizimi. Kommunikatsion jarayon. Tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Ishlab chiqarish va boshqaruv bosqichlari bo'yicha bo'linmalar ichidagi kommunikatsiyalar. Tashkiliy kommunikatsiyalar. Shaxslararo kommunikatsiyalar. Bo'limlar o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Norasmiy kommunikatsiyalar. Kommunikatsion tarmoqlarning namunalari.

### Menejment qarorlarini qabul qilish

Menejment qarorlarining mohiyati va xususiyatlari. Menejment qarorlariga qo'yiladigan talablar. Menejment qarorlarining turlari. Menejment qarorlarini qabul qilish bosqichlari.

Menejment qarorlarini optimallashtirish usullari. Optimal boshqarish va bajarish nazoratini tashkil etishda menejerning roli.

### Menejment tizimida tadbirkorlik va biznes

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Korxona-bozor iqtisodiyoti tizimi sifatida. Iqtisodiyotning boshqarish tizimi va tadbirkorlik.

Tadbirkorlik turlari. Biznes-reja, uning mohiyati va tuzilishi. Biznes-rejani tayyorlash va undan foydalanish. Biznes-rejaning tuzilishi: ishlab chiqarish, marketing, menejment, tavakkalchilik turlari, moliyaviy reja va boshqalar. Biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi.

Biznes-reja tuzishda qo'llaniladigan hujjatlarning turlari. Rezyume, mahsulot yakka xizmat turlari, tovar yetkazadigan bozor, marketing starategiyasi, ishlab chiqarish dasturi, korxonaning tashkiliy-rejali shakli, moliyaviy reja. Biznes-rejani bajarilishi ustidan nazorat.

### Strategiyani boshqarish

Strategiya tushunchasi, uning mazmuni. Strategik reja va uning bosqichlari. Strategik boshqarish maqsadi. Strategiyani belgilashga ta'sir etuvchi omillar: ichki omillar, tashqi omillar. Strategik boshqarishning besh vazifasi. Kompaniya missiyasi. Missiyani vazifaga aylantirish. Strategik boshqarish tamoyillari. Strategiyaning tashkiliy darajalari. Korporativ strategiya. Ishbop strategiya. Funksional strategiya. Amaliy strategiya. Strategiya turlarining o'zaro bogliqligi. Strategiya yaratishda missiya, maqsadlar, strategiyalar birligi. Golib strategiya mezonlari. Raqobat kurashida ustunlik.

### Ijtimoiy menejment

Bozor sharoitida ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy dastur va uning menejmentdagi o'rni. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozori. Ijtimoiy boshqaruv obyekti. Jamoaning ijtimoiy rivojlanishi. Inson xulqi omillari tizimi. Guruhlar va ularning ahamiyatlari. Xotorn tajribalari. Menejment nazariyasiga Xotorn tajribasi ta'siri. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalarining menejmentda qo'llanilishi. Menejmentda inson omili. hozirgi sharoitda ijtimoiy muammolarni hal etishning xorijiy tajribalari.

### Menejment samaradorligi

Boshqarish samaradorligi-iqtisodiy kategoriya sifatida. Boshqarish samaradorligini oshirish-bozor iqtisodiyotining muhim sharti.

Iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv samaradorligi tushunchalari. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari va rezervlari. Boshqaruv samaradorligini baholash usullari. Boshqaruv samaradorligini oshirish loyihalarini iqtisodiy asoslash.



### Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun sinov imtihonining javoblarini baholash umumiy mezonlari

| Ball | Bilim darajasi |
|---|---|
| 1 | 2 |
| 90-100 | Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa |
| 70-89 | O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa |
| 60-69 | Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa |
| 0-59 | Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa |

### 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha baholash mezonlari

| № | Umumiy ball | Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi | Xususiy ball |
|---|---|---|---|
| | | **Savol nazariy bo'lsa** | |
| 1 | 20-25 | Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan; | 8-10 |
| | | O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi; | 6-8 |
| | | Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; | 4-6 |
| | | Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan. | 0-4 |
| | | | |
| 2 | 15-20 | Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'ygan, | 6-8 |
| | | faktlarga to'g'ri baho bera olgan, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda | 5-6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan,<br>Javobda doktoantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Ijodiy yondashuv mavjud;<br>Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | <br><br><br>2-4<br>0-1 |
| | | | |
| 3 | 5-10 | Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;<br>Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan;<br>Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q; | 2-3<br>1-2<br>1-2<br>0-1 |
| | | | |
| 4 | 0-3 | Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas;<br>Umuman javob yozilmagan;<br>Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan;<br>O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan; | <br><br><br>0-3 |

**Izoh**: Imtihon jarayonida talabgorlar 4ta savolga javob berishlari talab etiladi. Har bir savolga maksimum 25 ball beriladi.



## ТАВСИЯ ЭТИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР


1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 25 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармони. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 8 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 22 майдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 304-сонли қарори.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016 – 48 б.
8. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
10. Йўлдошев Н.Қ., Набоков В.И. Менежмент назарияси. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2013. - 433 б.
11. Йўлдошев Н.Қ. Стратегик менежмент. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2013. -230 б.
12. Қосимова Д.С. Менежмент назарияси. Дарслик. –Т.: Тафаккур бўстони, 2011.-335 б.
13. Зиявитдинова Н.М., Хайитов Ш.Н., Ўринов Й.М. Менежмент. Дарслик. Т.: “Тафаккур бўстони”, 2019.
14. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008.
15. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник для вузов по экон. спец. и направл. – Третье изд. – М.: Гардарика, 2008.
16. Герчикова И.Н. Менеджмент: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
17. Дафт Р. Менеджмент. 6-е изд./ Пер с англ. – СПб.: Питер, 2007.

18.Кравченко А.И. История менеджмента: Учебное пособие для вузов. – 7-е изд. – М.: Академический Проект; Альма Матер, 2012.
19.Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. – М.: Дело, 2012.
20.Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В. Плахова, Т.М. Анурина, С.А. Легостаева и др. – М.: КНОРУС, 2007.
21.Семенов А.К., Набоков В.И. Основы менеджмента: – М.: ИТК «Дашков и К», 2010.
22. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент– М.: АО «Бизнес школа «Интел-Синтез», 2008.
23. Гулин. В.Н. Информационный менеджмент: Учебный комплекс. - Минск: Соврем. шк., 2009.
24.Ламбен. Ж.Ж., Чумпитас Р., Шулинг И. Менеджмент, ориентированний на рынок. 2-е изд. /Пер. с ангел. Под. ред. В.Б. Копчанова.- СПб.: Питер, 2008.
25.Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб Питер, 2009.
26.Ермаков В.П., Макиев З.Г. Менеджмент для студентов вузов. – Изд. 5-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2008.
27.Коноплев С.П., Коноплева В.С. Менеджмент продаж: Учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2009. 27. Гончаренко Л.П. Менеджмент инвестиций и инноваций: учебник. – М.: КНОРУС, 2009.
28.Пивоваров С.Э., Тарасевич Л.С. Международный менеджмент: Учебник. 4-е изд.- СПб.: Питер, 2008.
29.Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009.
30.Стратегический менеджмент. / Под ред. А.Н. Петрова.- СПб.: Питер, 2010.

**Интернет сайтлари**

http:// www.gov.uz
http:// www.lex.uz
http://www.mineconomy.uz.
http://www.mf.uz
http://www.stat.uz
http://www. soliq.uz
http://www.cbu.uz
http://www.wordbank.org.
http://www.ebrd.org.
http://www.imf.org